Annotatsiya. Maqolada standart uchun muhim patentlar (*standard-essential patents, SEP*) sohasida FRAND (*fair, reasonable, and non-discriminatory* – adolatli, oqilona va kamsitilmaydigan) majburiyatlarining huquqiy tabiati va amaliy samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi yetakchi yurisdiksiyalar sud amaliyotini tahlil qilish asosida FRAND mexanizmining samaradorligini aniqlash, shuningdek, uni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida normativ jihatdan mustahkamlash istiqbollarini baholashdan iborat. Tadqiqot obyekti – yetakchi yurisdiksiyalarda (Yevropa Ittifoqi, Birlashgan Qirollik, Xitoy, Hindiston, AQSH) shakllangan sud amaliyoti, xususan, *Huawei v. ZTE, Unwired Planet v. Huawei, Nokia v. OPPO* va boshqa yirik keyslardir. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-huquqiy va dogmatik metodlardan foydalanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, FRAND tartibi “ikki tomonlama yo‘l” sifatida shakllangan bo‘lsa-da, yurisdiksiyalar o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjud. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekiston qonunchiligida SEP va FRAND tushunchalarini tartibga soluvchi maxsus normalarning mavjud emasligi raqamli iqtisodiyot hamda 5G infratuzilmasini joriy etish sharoitida jiddiy huquqiy bo‘shliqni keltirib chiqaradi.

Kalit so‘zlar: standart uchun muhim patentlar (SEP), FRAND majburiyati, SEP litsenziyalash, antimonopol huquq, global litsenziya to‘lovi, sud yurisdiksiyasi, intellektual mulk, O‘zbekiston patent huquqi

ОБЯЗАТЕЛЬСТВА FRAND В ЛИЦЕНЗИРОВАНИИ SEP: ГЛОБАЛЬНАЯ СУДЕБНАЯ ПРАКТИКА И ПРАВОВОЙ ПРОБЕЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Хазраткулова Севинчбека Шодиёр кизи,
младший научный сотрудник Исследовательского центра
факультета права и судебной защиты
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье проанализированы правовая природа и практическая эффективность обязательств FRAND (*fair, reasonable, and non-discriminatory* – справедливые, разумные и недискриминационные) в сфере стандарт-существенных патентов (*standard-essential patents, SEP*). Целью исследования является определение эффективности механизма FRAND на основе анализа судебной практики ведущих юрисдикций, а также оценка перспектив его нормативного закрепления в законодательстве Республики Узбекистан. Объектом исследования выступает судебная практика, сформировавшаяся в ведущих юрисдикциях (Европейском союзе, Соединённом Королевстве, Китае, Индии и США), в частности по делам *Huawei v. ZTE, Unwired Planet v. Huawei, Nokia v. OPPO* и другим значимым судебным спорам. В ходе исследования использованы сравнительно-правовой и догматический методы. Полученные результаты свидетельствуют о том, что, несмотря на формирование режима FRAND как модели «двустороннего взаимодействия», между отдельными юрисдикциями сохраняются существенные

различия в подходах к его применению. В заключение отмечается, что отсутствие в законодательстве Республики Узбекистан специальных норм, регулирующих понятия SEP и FRAND, создаёт значительный правовой пробел в условиях развития цифровой экономики и внедрения инфраструктуры 5G.

Ключевые слова: стандарт-существенные патенты (SEP), обязательства FRAND, лицензирование SEP, антимонопольное право, глобальная лицензионная ставка, судебная юрисдикция, интеллектуальная собственность, патентное право Республики Узбекистан

FRAND OBLIGATIONS IN SEP LICENSING: GLOBAL JUDICIAL PRACTICE AND THE LEGAL GAP IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Hazratqulova Sevinchbeka Shodiyor kizi,
Junior Research Fellow of the Research Center,
Faculty of Business Law and Judicial Protection,
Tashkent State University of Law

Abstract. The article analyzes the legal nature and practical effectiveness of FRAND (fair, reasonable, and non-discriminatory) obligations in the field of standard-essential patents (SEPs). The purpose of the study is to determine the effectiveness of the FRAND mechanism based on an analysis of the case law of leading jurisdictions, as well as to assess the prospects for its normative strengthening in the legislation of the Republic of Uzbekistan. The object of the study is the case law formed in leading jurisdictions (European Union, United Kingdom, China, India, USA), in particular, Huawei v. ZTE, Unwired Planet v. Huawei, Nokia v. OPPO and other major cases. Comparative legal and dogmatic methods were used in the research process. The results show that although the FRAND regime was formed as a “two-way street,” there are significant differences between jurisdictions. In conclusion, it can be said that the lack of special norms regulating the concepts of SEP and FRAND in Uzbek legislation creates a serious legal gap in the context of the digital economy and the implementation of 5G infrastructure.

Keywords: standard essential patents (SEP), FRAND obligation, SEP licensing, antitrust law, global license fee, court jurisdiction, intellectual property, patent law of Uzbekistan

Kirish

XXI asrning ikkinchi o‘n yilligi raqamli transformatsiya, 5G aloqa tarmoqlari, *Internet of Things* (IoT) va sun‘iy intellekt texnologiyalarining keng tarqalishi bilan xarakterlanadi. Bu jarayonlarning poydevorini esa standartlashtirish va standart uchun muhim patentlar (*Standard Essential Patents, SEP*) tashkil etadi. SEP – shunday patent hisoblanadiki, undan foydalanmasdan tegishli texnik standartni amaliyotga joriy etishning mutlaq imkoni yo‘q. Telekommunikatsiya, *Wi-Fi*, video kodeklar va boshqa sohalardagi standartlarni belgilovchi tashkilotlar (*ETSI, IEEE, ITU*) o‘z a‘zolaridan SEPlarni adolatli, oqilona va kamsitmaydigan (*Fair, Reasonable and Non-Discriminatory – FRAND*) shartlar asosida litsenziyalash majburiyatini olishni talab qiladi.

FRAND majburiyati – bu standartlashtirish jarayonining bozordagi raqobat hamda innovatsiyalarni rag‘batlantirish kabi ikki tomonlama maqsadi o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlovchi huquqiy mexanizmdir. Biroq so‘nggi o‘n yillikda FRAND majburiyatlarining amaliy samaradorligi atrofida jiddiy bahslar avj olmoqda: SEP egasi natijasiz yakunlangan muzokaralardan so‘ng taqiqlovchi sud qarorini talab qila oladimi? Qaysi yurisdiksiya sudi global litsenziya stavkasini belgilash vakolatiga ega? FRAND tartib-taomillarida “niyati jiddiy litsenziat” qaysi pallada “shartnomani rad etuvchi litsenziat”ga aylanadi?

Mazkur savollar bugungi kunda O‘zbekiston uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Mamlakatda 5G tarmog‘ining bosqichma-bosqich joriy etilishi, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va xorijiy texnologik kompaniyalar bilan hamkorlikning kengayishi SEP/FRAND masalalarini tartibga solish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Biroq amaldagi O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagi “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonunida SEP va FRAND tushunchalari umuman aks ettirilmagan.

Maqolaning maqsadi – FRAND majburiyatlarining huquqiy tabiati va amaliy samaradorligini Xalqaro sud amaliyoti misolida tahlil qilish hamda O‘zbekiston huquq tizimidagi mavjud bo‘shliqlarni

aniqlab, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilangan: (a) *FRAND* majburiyatining shartnomaviy-huquqiy va antimonopol-huquqiy tabiatini ochib berish; (b) Yevropa Ittifoqi, Birlashgan Qirollik, Xitoy va Hindiston sud amaliyotini qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilish; (c) O'zbekiston qonunchiligidagi normativ bo'shliqlarni aniqlash va ularni to'ldirish bo'yicha aniq tavsiyalarni ilgari surish.

FRAND mavzusi xorijiy huquqiy adabiyotlarda atroflicha o'rganilgan. Xususan, J. Contreras (2019) standartlashtirish tashkilotlarining intellektual mulk huquqi (IPR – Intellectual Property Rights) *FRAND* majburiyatining shartnomaviy mohiyatini uchinchi shaxslar foydasiga tuzilgan shartnoma konstruksiyasi asosida ochib bergan. M. Lemley va K. Shapiro "patent blokadası" (patent hold-up) muammosini (Lemley & Shapiro, 2007), Layne-Farrar va uning hammualliflari *FRAND* litsenziya to'lovlarini hisoblashning iqtisodiy metodologiyasini ishlab chiqqan (Layne-Farrar et al., 2007). R. Picht "*Huawei v. ZTE*" qarori atrofida shakllangan Yevropa sud amaliyotini batafsil tahlil qilgan (Picht, 2017). P. Trisi va S. Lourens esa global litsenziya stavkasini belgilash bo'yicha yurisdiksiyalararo raqobat masalasini ko'tarib chiqqanlar (Treacy & Lawrance, 2021). So'nggi yillarda nashr etilgan asarlarda Birlashgan patent sudi (*UPC*) tomonidan qabul qilingan dastlabki *SEP* qarorlari va Yevropa Ittifoqining *SEP* sohasidagi yangi regulativ tashabbuslari qizg'in muhokama qilinmoqda (Bonadio & Contardi, 2024; Kühnen, 2025). Mintaqaviy ilmiy adabiyotlarda esa *SEP/FRAND* masalalari deyarli o'rganilmagan bo'lib, mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirishi bilan o'zining ilmiy yangiligini belgilaydi.

Asosiy qism

Standart uchun muhim patentlar (*SEP*) va *FRAND* majburiyatlari bugungi global texnologik iqtisodiyotning eng murakkab huquqiy institutlaridan biriga aylandi. Mobil aloqa, *Wi-Fi*, *Bluetooth*, video kodeklar va buyumlar interneti (*Internet of Things – IoT*) texnologiyalarining funktsionalligi xalqaro texnik standartlarga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lib, ushbu standartlarni amaliyotga joriy etish ko'p hollarda *SEP* egalarining patentlaridan majburiy tartibda foydalanishni talab qiladi. Natijada *SEP* egasi bozorda oddiy patent egalariga qaraganda ancha kuchliroq iqtisodiy va monopol mavqega ega bo'ladi, chunki standart me'yorlariga amal qiluvchi ishlab chiqaruvchi mazkur patentni chetlab o'ta olmaydi. Aynan shu sababli *FRAND* majburiyati *SEP* tizimining muvozanatni ta'minlovchi mexanizmi sifatida shakllangan.

FRAND majburiyatining mohiyati shundan iboratki, standartlashtirish tashkiloti a'zosi o'z patentini standart tarkibiga kiritishga rozilik berar ekan, keyinchalik undan monopol bosim vositasi sifatida foydalanmaslik majburiyatini ham o'z zimmasiga oladi. Masalan, ETSI intellektual mulk guquqi siyosati (*IPR Policy*) qoidalari *SEP* egasidan patentni adolatli, oqilona va kamsitmaydigan shartlarda litsenziyalashni talab qiladi (*European Telecommunications Standards Institute, 2023*). Agar ushbu majburiyat bo'lmaganida, *SEP* egasi tegishli standart bozorda mustahkam o'rin egallaganidan keyin haddan tashqari yuqori litsenziya to'lovlarini talab qilish yoki litsenziya berishni umuman rad etish orqali "patent blokadası" (*patent hold-up*) holatini yuzaga keltirishi mumkin edi. Bunday vaziyat esa innovatsiyalarni rag'batlantirish o'rniga bozordagi sog'lom raqobatni cheklaydi, texnologiyalar tannarxini oshiradi va yakuniy iste'molchilar manfaatiga jiddiy zarar yetkazadi (Lemley & Shapiro, 2007).

FRAND majburiyati, mohiyatan, faqat patent egasining majburiyatlarini belgilab qolmay, balki litsenziat xulq-atvorini ham tartibga soladi. Xalqaro sud amaliyotida *FRAND* prinsiplari "ikki tomonlama yo'l" sifatida talqin qilinadi. Ya'ni *SEP* egasi adolatli shartlar asosida taklif kiritilishi shart bo'lsa, texnologiyadan foydalanuvchi kompaniya ham muzokaralarda vijdonlilik xatti-harakatlarini namoyon etishi lozim. Ushbu yondashuv, ayniqsa, "*Huawei Technologies v. ZTE*" ishi bo'yicha qabul qilingan qarordan keyin Yevropa huquq tizimida mustahkam o'rin egalladi.

Yevropa Ittifoqi Sudi mazkur ishda *SEP* egasi sud tartibida taqiqlovchi choralar talab qilishidan avval patent buzilishi haqida tegishli ogohlantirish yuborishi, *FRAND* shartlarini aniq bayon qilishi va muzokaralar olib borish uchun real imkoniyat yaratishi kerakligini ta'kidladi (4iP Council, 2024). Shu bilan birga, sud litsenziat zimmasiga ham faqat vaqt yutish yoki litsenziya to'lovlarini to'lashdan

bo'yin tovlash maqsadida muzokaralar jarayonini sun'iy ravishda cho'zmaslik majburiyatini yukladi.

Mazkur sud qarorining amaliy ahamiyati shundaki, u texnologik bozor ishtirokchilari uchun aniq protsessual qoidalarni shakllantirib berdi. Agar bunday qoidalar mavjud bo'lmaganida, *SEP* egalari har qanday vaziyatda ishlab chiqarish jarayonini butunlay to'xtatib qo'yuvchi sud qarorlarini talab qilishi mumkin edi. Bu esa, o'z navbatida, ayniqsa smartfon ishlab chiqarish, telekommunikatsiya va elektronika sanoatida jiddiy iqtisodiy xavf-xatarlarni keltirib chiqargan bo'lardi. "*Huawei v. ZTE*" keysi bo'yicha qabul qilingan qaror ushbu xavf darajasini kamaytirib, sud organlari uchun o'ziga xos "muzokaralar standarti"ni yaratdi. Shu sababli *FRAND* tizimi nafaqat patent egasining huquqlarini himoya qilish, balki bozordagi sog'lom raqobatni muhofaza qilish vositasi sifatida ham shakllandi.

Biroq global amaliyot *FRAND* tizimi hali ham mukammal emasligini ko'rsatmoqda. Birlashgan Qirollik Oliy sudining "*Unwired Planet v. Huawei*" ishi bo'yicha chiqargan qarori bunga yorqin misol bo'la oladi. Mazkur ishda sud global patent portfeli uchun yagona global *FRAND* stavkasini belgilash bo'yicha o'z vakolatini tan oldi. Bir qarashda bu qaror xalqaro *SEP* nizolarini hal etishni sezilarli darajada soddalashtiradigandek ko'rinadi, chunki kompaniyalar har bir davlatda alohida-alohida sudlashish yoki muzokara olib borish o'rniga yagona global litsenziya asosida faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ammo amaliyotda ushbu yondashuv mutlaqo boshqa muammolarni keltirib chiqardi. Endilikda transmilliy kompaniyalar o'zlariga qulayroq bo'lgan sud instansiyasini tanlashga urinmoqdalar, global yurisdiksiyalar o'rtasida esa global stavkani aniqlash vakolati bo'yicha yashirin raqobat yuzaga kelmoqda.

Mazkur holatning iqtisodiy oqibatlari ham muhim ahamiyatga ega. Global *FRAND* stavkasi tizimi yirik patent portfeliga ega bo'lgan kompaniyalar foydasiga ishlashi mumkin, chunki ular kichik ishlab chiqaruvchilarga nisbatan muzokaralarda ancha yuqori ustunlikka ega bo'ladi. Shu bilan birga, global litsenziyalash modeli transmilliy texnologik kompaniyalar uchun huquqiy aniqlik yaratib, bir nechta davlatlarda parallel ravishda olib boriladigan sud xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Demak, *FRAND* tizimi bir vaqtning o'zida ham bozordagi barqarorlikni ta'minlaydi, ham bozor ishtirokchilari uchun strategik ustunliklarni yuzaga keltiradi.

Xitoy sudlarining so'nggi yillardagi faoliyati esa *SEP* nizolarini global geosiyosiy raqobat darajasiga olib chiqdi. "*Nokia v. OPPO*" va "*TCL v. Access Advance*" ishlari orqali Xitoy sudlari global litsenziya to'lovlari stavkalarini belgilash vakolatiga ega ekanligini amalda namoyish etdi (Center for Strategic and International Studies, 2025). Bunday yondashuv Xitoyning *SEP* nizolarini hal etuvchi yangi global markazga aylantirmoqda. Xitoyning bu boradagi faolligi mamlakatning texnologik mustaqillik siyosati bilan bevosita bog'liq bo'lib, u mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro *SEP* egalarining monopolistik bosimidan himoya qilishga qaratilgan. Shu bilan birga, mazkur jarayon Xitoy, Yevropa Ittifoqi va AQSH o'rtasidagi normativ ziddiyatlar hamda qarama-qarshiliklarni yanada kuchaytirmoqda.

Global amaliyotdagi yana bir muhim tendensiya antisud taqiqlari (*anti-suit injunction*) instituti bilan bog'liq. Bunday mexanizm bir davlat sudi boshqa davlatdagi sud jarayonini cheklash yoki to'xtatishga urinishidan iborat. Masalan, Xitoyning "*Huawei v. Netgear*" ishidagi yondashuvi global *FRAND* nizolarida "protsessual qurollanish poygasi" boshlanganini ko'rsatdi (WilmerHale, 2025). Bu holat texnologik nizolarning endilikda oddiy patent mojarosi emas, balki davlatlararo iqtisodiy manfaatlar bilan bog'liq strategik vositaga aylanganini anglatadi.

Mazkur global tendensiyalar O'zbekiston uchun ham bevosita ahamiyatga ega. Mamlakatda 5G tarmoqlarining joriy etilishi, xorijiy texnologik kompaniyalar bilan hamkorlikning kengayishi va telekommunikatsiya bozorining raqamli transformatsiyasi *SEP* va *FRAND* masalalarini dolzarb huquqiy muammoga aylantirmoqda.

Shu sababli O'zbekiston uchun *FRAND* tizimini o'rganish nazariy emas, balki amaliy zaruratdir. Global amaliyot shuni ko'rsatadiki, *FRAND* qoidalari mavjud bo'lmagan davlatlarda texnologik bozor barqarorligi izdan chiqishi mumkin. Aksincha, aniq protsessual qoidalar investitsiya muhitini yaxshilaydi, texnologik transferni rag'batlantiradi va raqamli iqtisodiyot rivojiga xizmat

qiladi. Ayniqsa, JSTga qo‘shilish jarayonida O‘zbekiston *TRIPS* bitimi talablariga moslashayotgan bir paytda *SEP* va *FRAND* institutlarini milliy huquqqa integratsiya qilish strategik ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi jadval asosiy yurisdiksiyalardagi yondashuvlarni umumlashtiradi.

Jadval

FRAND majburiyatini amalga oshirishning yurisdiksiyalararo qiyosiy tahlili

Yurisdiksiya	Taqiqlovchi qarorga yondashuv	Global stavkani belgilash vakolati	Asosiy qaror
Yevropa Ittifoqi	cheklangan; <i>Huawei</i> tartibiga rioya qilish shart	aniq emas, milliy sudlar darajasida hal etiladi	<i>Huawei v. ZTE</i>
Birlashgan Qirollik	milliy <i>SEP</i> bo‘yicha; faqat global litsenziya rad etilganda	mavjud; portfel uchun jahon stavkasini belgilaydi	<i>Unwired Planet v. Huawei</i>
Xitoy	mavjud; xolis muzokara shart	mavjud; ham ikki tomonlama litsenziya munosabatlari, ham patent to‘lovlari bo‘yicha	<i>Nokia v. OPPO; TCL v. Access Advance</i>
AQSH	cheklangan; <i>eBay</i> testi qo‘llanadi	cheklangan; faqat shartnoma bo‘yicha	<i>Ericsson v. Lenovo</i>
Hindiston	mavjud; “shartnomani rad etuvchi litsenziat” doktrinasi	mavjud emas, milliy doirada	<i>Lava v. Ericsson</i>

O‘zbekistonning amaldagi “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonuni (2002, oxirgi tahrirda 2024-y.) patent egasiga o‘z patentidan foydalanish bo‘yicha mutlaq huquq beradi, lekin standartlashtirish jarayonida olingan *FRAND* majburiyatini va undan kelib chiqadigan oqibatlarni nazarda tutmaydi (Republic of Uzbekistan, 2002). “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonun (2012-y.) ustun mavqeni suiiste‘mol qilishni taqiqlasa ham, intellektual mulk huquqlaridan foydalanish bilan bog‘liq xususiyatlarni alohida tartibga solmaydi (Republic of Uzbekistan, 2012). Bunda O‘zbekiston jahon savdo tashkiloti a‘zoliciga qo‘shilishga tayyorgarlik ko‘rayotgani (2024–2026-yy.) va *TRIPS* bitimi 8- va 40-moddalari talablarini hisobga olganda, mazkur bo‘shliqning o‘rnini to‘ldirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Aniqlangan bo‘shliqlar quyidagilarni qamrab oladi: birinchidan, milliy standartlashtirish tashkiloti “O‘zstandart” *IPR* siyosati *FRAND* majburiyatlarini *ETSI* yoki *IEEE* darajasida normativlashtirmagan; ikkinchidan, sud amaliyotida “xohlovchi litsenziat”, “taqiqlovchi qaror” va “xolis muzokara” konsepsiyalari ishlab chiqilmagan; uchinchidan, O‘zbekiston sudlarining global *FRAND* stavkani belgilash vakolati masalasi umuman ko‘tarilmagan. Bu – kelajakda mamlakatda 5G tarmog‘ini joriy etish va xorijiy *SEP* egalari bilan litsenziya munosabatlariga kirishish jarayonida jiddiy huquqiy noaniqlikni keltirib chiqarishi mumkin (Karimov, 2022).

Yuqoridagi tahlil quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, *FRAND* majburiyati amalda “avtomatik” ishlamaydi – uning samaradorligi har bir yurisdiksiyada sud doktrinasi sifatiga bog‘liq. Ikkinchidan, global stavkani belgilash vakolati bo‘yicha “forum shopping” va antisud taqiqlari raqobati avj olmoqda. Uchinchidan, *FRAND* majburiyatlari faqat milliy emas, balki transmilliy huquqiy mexanizm sifatida shakllanmoqda, bu esa O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlardan o‘z qonunchiligida tegishli normalarni joriy etishni talab qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, *FRAND* majburiyatlari standart uchun muhim patentlar bozorida muvozanat ta‘minlovchi muhim, ammo mukammal bo‘lmagan mexanizm sifatida shakllangan. Global

sud amaliyoti *Huawei v. ZTE* doktrinasidan *Unwired Planet va Nokia v. OPPO* qarorlarigacha bo'lgan rivojlanishni boshdan kechirgan bo'lsa-da, yurisdiksiyalararo ziddiyatlar – global stavkani belgilash vakolati, antisud taqiqlari, xolis muzokara mezonlari bo'yicha – bartaraf etilmagan.

O'zbekiston uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunga "Standart uchun muhim patentlar va *FRAND* majburiyatlari" deb nomlangan alohida bobni kiritish lozim. Ushbu bobda *SEP* ta'rifi, *FRAND* va'dasining huquqiy oqibatlari, taqiqlovchi qaror talab qilish uchun shart-sharoitlar belgilanishi kerak. Ikkinchidan, "O'zstandart" *IPR* siyosati *ETSI* va *IEEE* namunalariga muvofiqlashtirilishi lozim. Uchinchidan, "Raqobat to'g'risida"gi Qonunga *SEP* litsenziyalashda ustun mavqeni suiiste'mol qilishni baholash mezonlari kiritilishi kerak. To'rtinchidan, sud amaliyotini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarori darajasida *FRAND* nizolarini hal etish bo'yicha tushuntirishlar berilishi maqsadga muvofiq.

Ushbu chora-tadbirlar O'zbekistonning raqamli iqtisodiyot va 5G infratuzilmasi rivojiga mos ravishda huquqiy bazasini takomillashtirishga, xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantirishga va intellektual mulk sohasidagi xalqaro standartlarga erishishini ta'minlashga xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlar O'zbekiston uchun *FRAND* litsenziya to'lovlarini hisoblash metodikasini va Markaziy Osiyo doirasida mintaqaviy hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

REFERENCES

- 4iP Council. (2024). *Huawei v ZTE – Case law analysis*. <https://caselaw.4ipcouncil.com/cjeu-decisions/huawei-v-zte>
- Bonadio, E., & Contardi, M. (2024). The EU SEP Regulation proposal: A critical assessment. *European Intellectual Property Review*, 46(3), 145–162.
- Center for Strategic and International Studies. (2025, May 7). *The new SEP powerhouse: How China is shaping global patent disputes*. <https://www.csis.org/blogs/perspectives-innovation/new-sep-powerhouse-how-china-shaping-global-patent-disputes>
- Contreras, J. L. (Ed.). (2019). *The Cambridge handbook of technical standardization law: Competition, antitrust, and patents*. Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/9781316416723>
- European Telecommunications Standards Institute. (2023). *ETSI intellectual property rights policy*. <https://www.etsi.org/intellectual-property-rights>
- IAM. (2024). *United States: SEPs and FRAND – Litigation, policy and latest developments*. <https://www.iam-media.com/hub/sepfrand-hub/2024>
- Karimov, S. (2022). *O'zbekistonda intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari [Legal foundations of intellectual property rights protection in Uzbekistan]*. Adolat.
- Kluwer Patent Blog. (2025, March 31). *The WTO dispute between China and EU over Chinese SEPs global rate-setting*. <https://patentblog.kluweriplaw.com/2025/03/31/the-wto-dispute-between-china-and-eu-over-chinese-seps-global-rate-setting/>
- Kühnen, T. (2025). *Handbuch der Patentverletzung [Handbook of patent infringement]* (17th ed.). Carl Heymanns Verlag.
- Layne-Farrar, A., Padilla, A. J., & Schmalensee, R. (2007). Pricing patents for licensing in standard-setting organizations: Making sense of *FRAND* commitments. *Antitrust Law Journal*, 74(3), 671–706.
- Lemley, M. A., & Shapiro, C. (2007). Patent holdup and royalty stacking. *Texas Law Review*, 85(7), 1991–2049. <https://doi.org/10.2139/ssrn.923468>
- Microsoft Corp. v. Motorola Inc., 696 F.3d 872 (9th Cir. 2012). <https://www.wipo.int/wipolex/en/judgments/details/2224>
- Picht, P. G. (2017). *FRAND determination in TCL v. Ericsson and Unwired Planet v. Huawei: Same same but different?* (Max Planck Institute for Innovation and Competition Research Paper No. 17-20). *Social Science Research Network*.

Republic of Uzbekistan. (2002). *Law “On inventions, utility models and industrial designs” (No. 397-II)*. Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-76671>

Republic of Uzbekistan. (2012, January 6). *Law “On competition” (No. LRU-319)*. <https://lex.uz/docs/1931450>

Sisvel. (2024, January 29). *The Chongqing Nokia v OPPO global FRAND rate determination*. <https://www.sisvel.com/insights/the-chongqing-nokia-v-oppo-global-frand-rate-determination/>

Treacy, P., & Lawrance, S. (2021). FRAND in numbers: A review of post-Unwired Planet decisions. *Journal of Intellectual Property Law & Practice*, 16(4–5), 365–376. <https://doi.org/10.1093/jiplp/jpab036>

WilmerHale. (2024, April 24). *FRAND Quarterly: Navigating the Global SEP Landscape – April 2024*. <https://www.wilmerhale.com/en/insights/client-alerts/20240424-frand-quarterly-navigating-the-global-sep-landscape-april-2024>

WilmerHale. (2025, May 14). *FRAND Quarterly: Navigating the Global SEP Landscape – May 2025*. <https://www.wilmerhale.com/en/insights/client-alerts/20250514-frand-quarterly-navigating-the-global-sep-landscape-may-2025>

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 2-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 2

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 2

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.2.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.